

# **Qorako‘l tuman Axborot - kutubxona markazi Axborot – bibliografiya xizmati**



## ***Rangin tuyg‘ular musavviri***

( Abdulla Oripov tavalludining 85 yilligiga bag‘ishlab)

## **Bibliografik ro‘yxat**

**Qorako‘l – 2026**

## So‘z boshi

O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni unvoni sohibi, tarjimon va jamoat arbovi. XX asr o‘zbek adabiyoti va she‘riyatining taniqli vakili hamda O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi matni muallifi.

Abdulla Oripov 1941-yilning 21-martida Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi Neko‘z qishlog‘ida tug‘ildi. Qishloq Qo‘ng‘irtov etagida joylashgan. Otasi Orifboy Ubaydulla o‘g‘li jamoa xo‘jaligi raisi bo‘lgan. Onasi Turdixol uy bekasi bo‘lgan. Oilada to‘rt o‘g‘il, to‘rt qiz bo‘lib, Abdulla o‘g‘illarning kenjasi edi. 1958-yilda o‘rta maktabni oltin medal bilan tamomlagach, Toshkent Davlat universiteti o‘zbek filologiyasi fakultetining jurnalistika yo‘nalishiga o‘qishga kirib, oliygo‘hni ham 1963-yilda imtiyozli diplom bilan yakunladi. Universitetdan so‘ng 1963-1967-yillarda "Yosh gvardiya" nashriyotida muharrir, 1974-1976-yillarda „Sharq yulduzi“ jurnali bo‘lim mudiri; 1976-1982-yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiy maslahatchisi; 1982-1983-yillarda uyushmaning Toshkent viloyati bo‘limi mas‘ul kotibi; 1983-1985-yillarda "Gulxan" jurnali bosh muharriri; 1985-1996-yillarda Yozuvchilar uyushmasi mas‘ul kotibi; 1996-2009-yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi va bir vaqtning o‘zida O‘zbekiston Respublikasi Mualliflik huquqini himoya qilish davlat agentligi raisi lavozimlarida faoliyat yuritdi. 2009-yildan umrining oxirigacha O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faxriy raisi lavozimini egallagan. Abdulla Oripov 1990-yilda O‘zbekiston Oliy Kengashi, 1995-yilda O‘zbekiston Oliy Majlisi deputatligiga saylandi. 2005-yilda Senat a‘zosi etib tayinlangan. Abdulla Oripov 2016-yilning 5-noyabrda uzoq vaqt davomidagi kasallikdan so‘ng, AQShning Texas shtatida vafot etdi. U Toshkent shahridagi Chig‘atoy qabristoniga dafn etilgan.

## Ijodi va faoliyati

Abdulla Oripov talaba vaqtida respublika matbuotida „Qushcha“ deb atalgan ilk she‘ri chiqqan. Shundan keyin Abdulla Oripovning ketma-ket „Munojotni tinglab“, „Birinchi muhabbatim“, „Bahor“, „Kuz“, „Saraton“, „O‘zbekiston“, „Otello“, „Sarob“, „Dengizga“, „Malomat toshlari“, „Oltin baliqcha“, „Yuzmayuz“, „Genetika“ kabi she‘rlari o‘sha davrda o‘zbek adabiyotining yorqin namunalaridan biriga aylangan. 1965-yilda Oripovning „Mitti Yulduz“ nomli ilk she‘riy to‘plami o‘quvchilar qo‘liga yetib borgan. Bu Oripov ijodining boshlanishi edi. „Mitti yulduz“dan so‘ng „Ko‘zlarim yo‘lingda“, „Onajon“, „Ruhim“, „O‘zbekiston“, „Qasida“, „Xotiro‘t“, „Yurtim shamoli“, „Hayrat“, „Najot qal‘asi“, „Yillar armoni“, „Ishonch ko‘prigi“, „Munojot“, „Haj daftari“, „Saylanma“, „Ishonch ko‘priklari (1989)“ kabi bir qator she‘riy to‘plamlari bosmadan chiqa boshlagan. Abdulla Oripov juda sermahsul ijodkor bo‘lib dostonchilikda ham o‘zini ko‘rsatgan. Xususan uning: „Jannatga yo‘l“, „Tabib va o‘lim“, „Ranjkom“, „Sohibqiron“ kabi dostonlari o‘zbek xalqi adabiyot muhlislariga juda manzur kelgan. Abdulla Oripovning O‘zbekiston oldidagi xizmatlari cheksiz, u mustaqil O‘zbekistonning madhiyasi muallifi hisoblanadi.

Abdulla Oripov Kaliforniyada joylashgan (AQSh) Fan, ta'lim, sanoat va san'at xalqaro akademiyasining chet ellik a'zosi hisoblanadi. Yaponiyaning Soka universiteti professori. „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ bosh tahrir hay'ati a'zosi, Hamza nomidagi hamda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofotlari laureati hisoblanadi

Abdulla Oripov g‘azal janrida ham ijod qilgan. Jumladan, 2024-yil nashr etilgan „Buyuk soddalik“ nomli to‘plamida 34 ta g‘azali nashr etilgan.

### **Tarjimalari**

Abdulla Oripov Dantening „Ilohiy komediya“ asarini, Nekrasov, Lesya Ukrainka, T. Shevchenko, K. Kuliyev kabi dunyoga mashhur yozuvchilarning asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan

2015-yilda Oripov Italiya yulduzi ordeni bilan taqdirlangan. Ordenni Oripovga Italiya prezidenti Serj Sotarelloning maxsus taklifiga binoan topshirilgan.

### **Asarlari**

- "Mitti yulduz" (1965)
- "Ko‘zlarim yo‘lingda" (1967)
- "Onajon" (1969)
- "Ruhim" (1971)
- "O‘zbekiston" (1972)
- "Xotirot" (1974)
- "Yurtim shamoli" (1974)
- "Jannatga yo‘l" (1978)
- "Hayrat" (1979)
- "Hakim va ajal" (1980)
- "Najot qal‘asi" (1981)
- "Yillar armoni" (1983)
- "Ranjkom" (1988)
- Haj daftari" (1992)
- "Saylanma" (1996)
- "Sohibqiron (she‘riy drama)" (1996)
- "Tanlangan asarlar I-IV" (2000-2001)
- "Ummon bo‘yidagi o‘ylar" (2024)

### **Mukofotlari**

- 1983-yil – "O‘zbekiston xalq shoiri"
- 1994-yil – "Do‘stlik" ordeni
- "Xalqlar do‘stligi" ordeni
- 1998-yil – "O‘zbekiston Qahramoni" unvoni
- 2015-yil – Italiya yulduzi ordeni
- 2015-yil – Xalqaro „Oltin yulduz“ ordeni

- 1994-yilda – Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti

Aziz foydalanuvchilar ! Qolingizdagi ushbu tavsiya ro‘yxatimizni tuzishdan maqsad O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning hayoti va faoliyati, uning ijod mahsullaridan bahramand etishdir. Marhamat kutubxonamizdan olib foydalanishingiz mumkin.

Qo‘llanma keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

## Adabiyotlar

### 2019

**1.Орипов, Абдулла.**Танланган асарлар [Матн]: шеърлар / А.Орипов. – Тошкент. Фафур Фулом , 2019. – 324 б.

**2.Орипов, Абдулла.** Биринчи мухаббатим[Матн]:шеърлар / А.Орипов; тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар: Л.Тангриев, Д. Бегимкулов. – Тошкент: Фафур Фулом, 2019. -156 б.

**3.Орипов, Абдулла.**Танланган асарлар [Матн]: шеърлар, дostonлар / А.Орипов. – Тошкент. Sharq, 2019. – 784 б.

**4.Орипов, Абдулла.** Умр манзиллари [Матн]: шеърлар, шеърый тракт, ғазаллар / А.Орипов. – Тошкент: Tafakkur qanoti , 2019. – 116 б.

### 2000

**5.Орипов,Абдулла.**Танланган асарлар.1 жилд[Матн]: шеърлар ва дostonлар / А.Орипов. – Тошкент. Фафур Фулом , 2000. – 432 б.

### 2001

**6.Орипов,Абдулла.**Танланган асарлар.3жилд[Матн]: таржималар / А.Орипов. – Тошкент. Фафур Фулом , 2001. – 384 б.

**7.Орипов,Абдулла.**Танланган асарлар.4жилд[Матн]: киноценарий, мақолалар, суҳбатлар, хотиралар / А.Орипов. – Тошкент. Фафур Фулом , 2001. – 384 б.

### 2020

**8.Oripov, Abdulla.** Sohibqiron [Matn]: doston / A.Oripov. – Toshkent: Nodirabegim , 2020. – 96 b.

### 2022

**9.Орипов, Абдулла.** Жаннатга йўл [Матн]:драматик дoston / А.Орипов. Нашрга тайёрловчи: Р.Орипова. – Тошкент. Zukko kitobxon , 2022. – 224 б.

**10. Oripov, Abdulla**[Matn]:nazm / To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:D. Begimqulov . – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti , 2022. – 720 b.

**2023**

**11. Oripov, Abdulla.** She'rlar to'plami [Matn]: she'rlar / A.Oripov. – Toshkent: Zukko kitobxon , 2023. – 128 b.

### **Davriy nashrlarda chop etilgan maqolalar**

**2020**

**12. Орипов, А.** Тоғлардан қайтган садо:[шеърлар] /А.Орипов. // Kitob dunyosi. – 2020. – 27 май. Мундарижа: Баҳор; Увада камзулда биллур тугмадай; Булутлар ортидан боқади юлдуз.

**13. Гофуров, А.** Маънавият, адабиёт ҳамда санъатга эътиборнинг яна бир намунаси: [Абдулла Орипов ҳақида] / А. Гофуров // Халқ сўзи. – 2020. – 9дек. – В.3.

**14. Жўраев, А.** Уч муборак ва тарихий қарор: [Абдулла Орипов, Ботир Зокиров, Ўткир Ҳошимовнинг қутлуғ номлари халқимиз қалбидан мустаҳкам ўрин олганлари ҳақида] / Ашурали Жўраев // Китоб дунёси.- 2020.- 11дек. – Б.3

**2021**

**15. Oripov, Abdulla.** Muallimlarga:[she'r] / A. Oripov // Gulxan 2020. – №10. – В.6Оripov, Abdulla. Hikmatga to'la umr:[hikoya] / A. Oripov // Gulxan. – 2021. – №3 – В. 2

**16. Toshqulov, O.** Burgutlar uchadigan qo'ya; Maqola/ O. Toshqulov // Gulxan. – 2021. - №3 –В. 10-11

**17. Тожимаматова, М.** Ўз халқининг овози бўлган ижодкор: [Ўзбекистон халқ шоири Абдулла Орипов ҳаёти ва ижоди ҳақида] / М. Тожимаматова // Янги Ўзбекистон. – 2021. – 19 март.

**18. Саййид , С.** Сандикдан чиққан қалдирғоч:[Ўзбекистон халқ шоири Абдулла Орипов ҳақида] / Сирожиддин Саййид // Янги Ўзбекистон. – 2021. – 20 март.

## 2023

**19. Орипов, А.** Сен баҳорни соғинмадингми?:[шеърлар] / А.Орипов // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati . – 2023. – 17 mart. – В.1

**20. Али, Муҳаммад.** Дўстим ҳақида хотираларим:[ Ўзбекистон халқ шоири Абдулла Орипов ҳақида] / Муҳаммад Али // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati . – 2023. – 17 mart.– В.1-3.

**21. Орипов, А.** Савоб: [шеър] / А.Орипов // Халқ сўзи . – 2023. – 4 noyab. – Б.3

**22. Жумаев, З.** Ватан илдизига туташган ижод:[ Ўзбекистон халқ шоири Абдулла Орипов ҳақида эссе] / З. Жумаев // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati . – 2023. – 17 noyab.– В.4

**23. Орипова, З.** Тушларимга кирар Абдулла акам:[Ўзбекистон халқ шоири Абдулла Ориповнинг 79 ёшли синглиси Зулфия ая Орипова билан суҳбат / М.Муҳаммадризаева суҳбатлашди] // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati . – 2023. – 1 dek. – В.4

## 2024

**24. Umrzoqova, G.** Abdulla Oripov хотirasiga:[she’r] / G.Umrzoqova // Gulxan. – 2024. - № 5. – В.11

**25. Oripov, A.** Yangi yil:[she’r] / A. Oripov // Oltin qalam. – 2025. – №1. – В.1

**26. Орипов, А.** Она тилимга:[шеър] / А.Орипов // Халқ сўзи . – 2025. – 21 фев. – Б.4

**27. Орипов, А.** Баҳор хосияти:[шеър] / А.Орипов // Халқ сўзи . – 2025. – 21 март. – Б.4

**28. Жўраев, А.** Абдулла Орипов Ватанномаси:[эссе] / А. Жўраев // Янги Ўзбекистон . – 2025. – 21 март. – Б.6

**29. Орипов, А.** Мен нечун севаман Ўзбекистонни:[шеър] / А.Орипов // Халқ сўзи . – 2025. – 15 июнь. – Б.6

**30. Илъин, Н.** Шоир билан ҳамнафас:[Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси аъзоси Николай Илъиннинг Абдулла Орипов ҳақида хотираси] / Николай Илъин. Rus tilidan D.Qarshiboyeva tarjimasii // Jadid. – 2026. – 20 mart. – В.4

**31. Орипов, А.** Мангудир Ватанда мартга эҳтиёж:[шеърлар] / А.Орипов // Jadid. – 2026. – 20 mart. – В.4. Мундарижа: Наврўз; Ажаб ҳикмат; Коинот

гултожи; Қуш тили; Халқни асранг; Ниҳол; Амударёга; Дўстлик; Устоз; Муаллим; Илтижо; Биз; Шукр; Дард.

**32. Раҳмат, У.** Мангуликка муҳрланган шеърият:[Дўрман ижод уйи худудида Абдулла Орипов уй-музейи очилди] / Ўткир Раҳмат // Халқ сўзи . – 2026. – 24 март. – Б.1-3.

**33. Юсупов, А.** Шеъриятнинг қутлуғ қадамжоси:[Дўрманда Абдулла Орипов уй-музейи очилишидан лавҳалар] / А.Юсупов // Янги Ўзбекистон . – 2026. – 25 март. – Б.6. Мундарижа: Муаззам ва дилбар; Маҳаллада дув-дув гап; Руҳият ранглари инкишофи.

Tuzuvchi: M.Qulliyeva.